



**MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**



**SIRDARYO VILOYATI
PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI**



**A.AVLONIY NOMIDAGI
PEDAGOGIK MAHORAT
MILLIY INSTITUTI**

**RAQAMLI PEDAGOGIKA:
MASOFAVIY TA'LIM, O'QITISH
TEXNOLOGIYALARI VA SIFAT
MONITORINGI**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**DIGITAL PEDAGOGY: DISTANCE
LEARNING, TEACHING
TECHNOLOGIES, AND QUALITY
MONITORING**

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE**

**ЦИФРОВАЯ ПЕДАГОГИКА:
ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ,
ТЕХНОЛОГИИ ПРЕПОДАВАНИЯ И
МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА**

**МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

GULISTON - 2026



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI**

SIRDARYO VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

**RAQAMLI PEDAGOGIKA: MASOFAVIY TA'LIM, O'QITISH
TEXNOLOGIYALARI VA SIFAT MONITORINGI**

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

2026-yil 21-aprel

**DIGITAL PEDAGOGY: DISTANCE EDUCATION, TEACHING
TECHNOLOGIES, AND QUALITY MONITORING**

MATERIALS OF THE INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL

CONFERENCE

April 21, 2026

**ЦИФРОВАЯ ПЕДАГОГИКА: ДИСТАНЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ,
ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ И МОНИТОРИНГ КАЧЕСТВА**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ

КОНФЕРЕНЦИИ

21-апрель 2026 г.

GULISTON – 2026

Raqamli pedagogika: masofaviy ta'lim, o'qitish texnologiyalari va sifat monitoringi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi, 2026.

Ushbu konferensiya to'plamida Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi tomonidan tashkil etilgan – "Raqamli pedagogika: masofaviy ta'lim, o'qitish texnologiyalari va sifat monitoringi" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumaniga kelib tushgan tezis va maqolalar o'rin olgan. Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda raqamli ta'lim muhitida pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning kompetensiyalarini rivojlantirish hamda media savodxonlikni oshirish; professional va oliy ta'limda masofaviy ta'lim texnologiyalari hamda innovatsion o'qitish metodlarini joriy etish; maktabgacha va umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar asosida samarali o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish; ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy raqamli tizimlarini yaratish va rivojlantirishga oid xorijiy tajribalar bo'yicha to'plangan materiallar joy olgan.

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, umumta'lim maktab o'qituvchilari, barcha tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: markaz direktori, p.f.f.d (PhD)., dotsent G.Berdaliyeva

Tahrir hay'ati:

A.Uralov – filologiya fanlari doktori, professor; O.Shirinov – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); B.Elmuratov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD); M.Nazarova – katta o'qituvchi; I.Mamajanov – katta o'qituvchi; M.Eshonqulova – katta o'qituvchi; S.Amanyov – katta o'qituvchi; A.Nizamov – katta o'qituvchi; D.Jonibekov – katta o'qituvchi

Texnik muharrir: A.Nizamov

Taqrizchilar:

I.Ermatov – Guliston davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrası, filologiya fanlari doktori, professor;

A.Uralov – Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi Tillar, pedagogika va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi kafedrası mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi kengashining 2026-yil 30-aprelda o'tkazilgan 6-sonli yig'ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

To'plamdan o'rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas'uldir!

© SVPMM, 2026

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI

Qayumova Shoxsanam To'lg'in qizi

Guliston davlat universiteti doktoranti (DSc)

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi raqamli vositalarning, xususan Canva dasturi hamda Topqir.uz platformasining didaktik imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan integrativ yondashuv tavsiflanadi. Tadqiqot tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va modellashtirish metodlari asosida olib borildi. Natijada raqamli texnologiyalarni o'qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi bilan uyg'unlashtirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslandi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, o'qish savodxonligi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, metodik tayyorgarlik, Canva, Topqir.uz, raqamli kompetensiya, vizuallashtirish, interaktiv baholash, boshlang'ich ta'lim.

Abstract. This article analyzes the methodological foundations for the use of digital technologies in preparing future primary school teachers to develop students' reading literacy. The study reveals the didactic potential of digital tools that facilitate the formation and development of reading literacy, with particular emphasis on the Canva application and the Topqir.uz platform. In addition, an integrative approach aimed at improving the methodological preparedness of future teachers is described. The research was conducted on the basis of analysis, comparative analysis, generalization, and modeling methods. As a result, it is substantiated that the integration of digital technologies with the methodology of developing reading literacy contributes to the enhancement of the methodological, digital, and reflective competencies of future primary school teachers.

Keywords: digital technologies, reading literacy, future primary school teacher, methodological preparedness, Canva, Topqir.uz, digital competence, visualization, interactive assessment, primary education.

Аннотация. В данной статье анализируются методические основы использования цифровых технологий в процессе подготовки будущих учителей начальных классов к развитию читательской грамотности у учащихся. В исследовании раскрываются дидактические возможности цифровых средств, способствующих формированию и развитию читательской грамотности, в частности программы Canva и платформы Topqir.uz. Также

описывается интегративный подход, направленный на совершенствование методической подготовки будущих педагогов. Исследование проведено на основе методов анализа, сравнительного анализа, обобщения и моделирования. В результате обосновано, что интеграция цифровых технологий с методикой развития читательской грамотности способствует развитию методических, цифровых и рефлексивных компетенций будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова: цифровые технологии, читательская грамотность, будущий учитель начальных классов, методическая подготовка, Canva, Topqir.uz, цифровая компетентность, визуализация, интерактивное оценивание, начальное образование.

Bugungi kunda ta'lim sifati masalasi raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda qayta talqin qilinmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat fan mazmunini puxta egallashni, balki uni raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchining yoshi, ehtiyoji va bilish uslubiga mos tarzda tashkil etishni ham talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro mezonlar asosida oshirish, pedagoglarning kasbiy salohiyatini kuchaytirish va ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu yo'nalish, xususan, "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonunda ta'limning mazmuni, shakllari va uni amalga oshirish shart-sharoitlariga qo'yiladigan talablar bilan mustahkamlangan. Mazkur masalaning dolzarbligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi mazmunida ham yaqqol ifoda etilgan. Ushbu konsepsiyada ta'lim sifatini oshirish, xalqaro baholash dasturlari, jumladan PISA reytingida ilg'or natijalarga erishish, o'quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirish hamda ta'lim tizimiga innovatsion va zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu esa boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasini metodik jihatdan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining keyingi o'quv faoliyati uchun tayanch bo'ladigan savodxonlik, tafakkur va kommunikativ kompetensiyalar shakllanadigan muhim davrdir. Aynan shu bosqichda o'quvchining matnni o'qish, tushunish, mazmunini tahlil qilish, asosiy g'oyani ajratish, voqealar o'rtasidagi bog'lanishni anglash va o'qilgan axborotga nisbatan munosabat bildirish ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois bugungi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda o'qish savodxonligi faqat texnik o'qish emas, balki matnni tushunish, talqin qilish, baholash va undan foydalanish kompetensiyasi sifatida talqin qilinmoqda. Bu yondashuv xalqaro baholash dasturlarining metodologik asoslari bilan ham uyg'unlashadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorligi esa faqat nazariy bilim bilan cheklanmaydi. U o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, matn bilan

ishlashning samarali usullarini tanlay olish, ko'rgazmali vositalardan foydalana bilish, interaktiv topshiriqlar ishlab chiqish, o'quv natijalarini diagnostik baholash va o'z metodik faoliyatini refleksiya qila olish ko'nikmalarini ham qamrab oladi. Shu nuqtai nazardan, raqamli texnologiyalar bo'lajak o'qituvchining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda muhim vosita hisoblanadi.

Bugungi kunda ta'lim sifati masalasi raqamlashtirish jarayonlari bilan chambarchas bog'liq holda qayta talqin qilinmoqda. Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat fan mazmunini bilishni, balki uni raqamli vositalar yordamida o'quvchi yoshiga, ehtiyojiga va bilish uslubiga mos tarzda tashkil etishni ham talab qilmoqda. OECDning PISA hujjatlarida ham o'quvchining bilimni qayta aytishi emas, balki uni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olishi muhim mezon sifatida belgilangan; shu sabab o'qish savodxonligi bugun faqat o'qish texnikasi emas, balki matnni tushunish, talqin qilish, baholash va undan foydalanish kompetensiyasi sifatida qaraladi [11].

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining keyingi o'quv faoliyati uchun tayanch bo'ladigan savodxonlik, tafakkur va kommunikativ kompetensiyalar shakllanadigan davrdir. Shu sababli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini aynan o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash masalasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tadqiqotlarda o'qituvchining til va savodxonlikka oid bilimlari, o'zini o'qitishga tayyor his qilishi hamda darsni differensial tashkil eta olishi o'quvchilarning erta savodxonlik natijalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Parrila va hammualliflar tadqiqotida o'qituvchi bilimlari o'qitish sifati bilan bog'langan, differensial yondashuv esa boshlang'ich dekodlash ko'nikmalari sustroq bo'lgan sinflarda foydali natija bergan [3].

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bir qismi o'qish savodxonligini hanuz "tez va to'g'ri o'qish" bilan tor ma'noda bog'laydi; matnni tahlil qilish, baholash, mazmunni vizuallashtirish, interaktiv topshiriqlar tuzish va diagnostik baholash kabi jihatlar esa yetarli darajada integratsiyalashmagan. Muammoning ikkinchi tomoni shundaki, raqamli vositalar ko'pincha darsning bezak qismi sifatida qo'llanadi, lekin ular o'qish savodxonligini rivojlantirishning mazmuniy va metodik komponentlari bilan tizimli bog'lanmaydi. Digital competence bo'yicha zamonaviy sharhlarda ham bo'lajak o'qituvchilarni raqamli muhitga tayyorlashda "vositani bilish"ning o'zi yetarli emasligi, uni pedagogik maqsadga integratsiyalash hal qiluvchi omil ekani ko'rsatilgan.

Tadqiqotning maqsadi – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashda raqamli pedagogika vositalaridan foydalanishning metodik asoslarini aniqlash va raqamli ta'lim texnologiyalari asosida integrativ metodik mexanizmni taklif etishdan iborat [4].

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1. O'qish savodxonligi va raqamli ta'lim texnologiyalari o'rtasidagi didaktik bog'liqlikni aniqlash;
2. Bo'lajak o'qituvchilar tayyorgarligida raqamli ta'lim texnologiyalarning metodik imkoniyatlarini tahlil qilish;

3. Raqamli vositalarni matn bilan ishlash strategiyalariga integratsiyalovchi metodik modelni ishlab chiqish;

4. Taklif etilayotgan yondashuvning amaliy ahamiyatini tajriba-sinov natijalari asosida asoslash [4].

O'qish savodxonligi matnni o'qish bilangina cheklanmaydi; u axborotni ajratish, talqin qilish, dalillarni solishtirish, xulosa chiqarish va matnga munosabat bildirishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan Canva kabi vositalar matn mazmunini sxema, infografika, voqealar ketma-ketligi, qahramonlar xaritasi yoki tushuncha modeli ko'rinishida ifodalashga yordam beradi. Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarining ko'rgazmali-obrazli tafakkuriga mos keladi va bo'lajak o'qituvchiga matnni "ko'rindigan mazmun"ga aylantirish metodikasini o'rgatadi. ScienceDirect va boshqa nufuzli bazalardagi tadqiqotlar ham preservice teacher tayyorlovida raqamli hikoyalash, media-integratsiya va multimodal dizayn kabi faoliyatlar raqamli savodxonlikni, metodik refleksiyan hamda o'qitish uchun dizayn ko'nikmalarini rivojlantirishini ko'rsatadi.

Clark, Helfrich va Hatch o'qishni o'qitishda umumiy pedagogik bilimning o'zi yetarli emasligini, aynan mazmuniy bilim va pedagogik mazmuniy bilim birligi muhimligini ko'rsatgan. Hindman va hammualliflari esa fonemik sezgirlik, fonika, lug'at boyligi, ravon o'qish va o'qib tushunish komponentlari nazariy emas, amaliy o'qitish jarayoniga ko'chirilgan holatda egallanishi zarurligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda raqamli vositalar "qo'shimcha" emas, balki aynan o'qish savodxonligini o'qitishning mazmuniy-pedagogik mexanizmi sifatida qaralishi kerak. Parrila va hammualliflari tadqiqotida o'qituvchining til va savodxonlikka oid bilimlari o'qitish sifati bilan bog'langan; T1 dekodlash ko'rsatkichlari nazorat qilinganda ham o'qituvchining tajribasi va differensial yondashuv muhim omillar sifatida tilga olingan. Bu holat bo'lajak o'qituvchilarga matn bilan ishlashning turli darajalarini va ularni raqamli vositalar bilan differensiallashtirishni o'rgatish zarurligini ko'rsatadi [1].

Ushbu metodik tayyorlash mexanizmi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlash jarayonini raqamli ta'lim texnologiyalari asosida tizimli tashkil etishni ifodalaydi. Mexanizmدا vizuallashtirish, interaktiv mashqlar, diagnostik baholash va refleksiya bosqichlari o'zaro uzviy bog'langan holda qo'llanilib, bo'lajak o'qituvchilarning metodik, amaliy va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matn bilan ishlashni vizuallashtirish, interaktiv topshiriqlar yaratish, o'quv natijalarini diagnostik baholash va metodik faoliyatni refleksiv tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. Mazkur mexanizm Canva, Topqir.uz, ToyTheatre, Wordwall, Educaplay, DigiPuzzle, Wheels of Names kabi raqamli vositalar yordamida o'qish savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik tayyorgarlikni ta'minlaydi.

Mazkur model Tondeur va hammualliflarining preservice teachers uchun samarali texnologiya tayyorlov strategiyalarini tizimlashtirgan sharhi, shuningdek Getenet va hammualliflarining birinchi kurs bo'lajak o'qituvchilarida raqamli

texnologiyalarni tushunish, raqamli savodxonlik va o'ziga ishonch kurs dizayni bilan bog'liqligini ko'rsatgan natijalari bilan hamohangdir.



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik tayyorlash mexanizmi.

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashda raqamli pedagogika vositalaridan foydalanish ta'limning zamonaviy ehtiyojlariga javob beruvchi strategik yo'nalishdir. Bu vositalar birgalikda qo'llanganda bo'lajak o'qituvchining metodik, raqamli va refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolaning ilmiy-amaliy xulosasi shundan iboratki, o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlash jarayonida raqamli vositalarni bevosita matn bilan ishlash strategiyalariga integratsiyalash kerak. Shundagina raqamli

pedagogika darsning tashqi bezagi emas, balki o'quvchi va bo'lajak o'qituvchi faoliyatini sifat jihatdan o'zgartiruvchi metodik omilga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Clark, S. K., Helfrich, S. R., & Hatch, L. Examining preservice teacher content and pedagogical content knowledge needed to teach reading in elementary school. *Journal of Research in Reading*, 2017, 40, 219–232. DOI: 10.1111/1467-9817.12057.
2. Hindman, A. H., Morrison, F. J., Connor, C. M., & Connor, J. A. Bringing the Science of Reading to Preservice Elementary Teachers: Tools That Bridge Research and Practice. *Reading Research Quarterly*, 2020, 55(S1), S197–S206. DOI: 10.1002/rrq.345.
3. Parrila, R., Inoue, T., Dunn, K., Savage, R., & Georgiou, G. Connecting teachers' language knowledge, perceived ability and instructional practices to Grade 1 students' literacy outcomes. *Reading and Writing*, 2024, 37, 1153–1181. DOI: 10.1007/s11145-023-10432-4.
4. Tondeur, J. et al. Preparing preservice teachers to teach with digital technologies: a systematic review. *Computers & Education*, 2025. ScienceDirect.
5. Momdjian, L. A study of preservice teachers' digital competence. *Teaching and Teacher Education*, 2025. ScienceDirect.
6. Tomczyk, Ł. et al. Digital competence among pre-service teachers: A global perspective. *Teaching and Teacher Education*, 2024. ScienceDirect.
7. Getenet, S., Haeusler, C., Redmond, P. et al. First-year Preservice Teachers' Understanding of Digital Technologies and Their Digital Literacy, Efficacy, Attitude, and Online Learning Engagement: Implication for Course Design. *Tech Know Learn*, 2024, 29, 1359–1383. DOI: 10.1007/s10758-023-09724-z.
8. Çetin, E. Digital storytelling in teacher education and its effect on the digital literacy skills of pre-service teachers. *Thinking Skills and Creativity*, 2021. ScienceDirect.
9. Shinas, V. H. Preparing teacher candidates to implement digital storytelling. *Computers and Education Open*, 2022. ScienceDirect.
10. Qayumova, Sh. T. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda o'qish savodxonligini rivojlantirishga o'rgatish metodikasini takomillashtirishda zamonaviy yondashuvlar. *Research Focus International Scientific Journal*, 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15668689.
11. OECD. *PISA 2022 Assessment and Analytical Framework*. Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/dfe0bf9c-en.
12. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-637, 2020.
13. Doniyarov, M. A. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilar o'qish savodxonligini rivojlantirishga metodik jihatdan tayyorlash. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 2025, 10-son, 247–251-betlar.

Mundarija

KIRISH.....	4
I SHO'BA. RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA PEDAGOG KADRLAR TAYYORLASH, KOMPETENSIYALAR VA MEDIA SAVODXONLIK.....	6
MAKTABGACHA TA'LIM SIFATINI BOSHQARISHDA ZAMONAVIY MENEJMENT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI HAMDA AHAMIYATI <i>Berdaliyeva Gulasal Abduqunduzovna</i>	6
TILLARNING MORFOLOGIK TASNIFI <i>Uralov Azamat Begnarovich</i>	10
DIGITAL SYSTEMS AS CO-EDUCATORS GLOBAL CHANGES FOR THE MODERN CLASSROOM <i>Miss Shela Girlie Borromeo</i>	16
TRAINING PEDAGOGICAL PERSONNEL IN THE DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT COMPETENCIES AND MEDIA LITERACY FOR THE 4IR ERA <i>Dr. Tugce Kilic</i>	17
ВАЖНОСТЬ ЦИФРОВИЗАЦИИ В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ, ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА КАЧЕСТВО ПРЕПОДАВАНИЯ <i>Нубар Байрамова</i>	20
SMART CLASSROOMS, FLUENT LEARNERS THE ROLE OF AI-DRIVEN TOOLS IN DEVELOPING ENGLISH MACRO SKILLS IN SECONDARY SECONDARY SCHOOLS <i>Dr. A.S.Manjur</i>	23
FROM TRADITIONAL TO DIGITAL: UPSKILLING ENGLISH TEACHERS FOR 21ST-CENTURY CLASSROOMS <i>Dr Shuaib Mohammad Bhat</i>	25
BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI <i>U.X.Dusnazarov</i>	27
PEDAGOG KADRLAR KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARINING METODIK IMKONIYATLARI <i>Nizamov Akmal Shoxobiddinovich</i>	33
TERMINOLOGIK TIZIMNING LINGVISTIK MOHIYATI <i>Djabborova Mashhura Jo 'raqulovna</i>	39
RAQAMLI PLATFORMALAR ASOSIDA XORIJIY TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH <i>Gulboyeva Munavvar Eshpulatovna</i>	43
FIZIKA, ASTRONOMIYA VA TABIIY FANLARDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH AHAMIYATI <i>Jumaniyazov Amirbek Umarbekovich</i>	47
O'ZBEKISTONDA RAHBARLAR ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANIB INKLUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH: NAZARIYA VA AMALIYOT <i>Botirova Ozoda Baxodir qizi</i>	50

O'QUVCHILARDA MEDIASAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGNING ROLI <i>Shirinov Otabek Tuvalovich</i>	174
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING METODIK ASOSLARI <i>Qayumova Shoxsanam To'lqin qizi</i>	177
PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK KOUCHING SHAKLLARI <i>Kabulova Sanobar Eshnazarovna</i>	183
BOSHLANG'ICH SINFLARDA WORDWALL PLATFORMASIDAN FOYDALANISH ASOSIDA DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Atayeva Baxrinisa Abduvaxidovna</i>	189
O'QUVCHILARNING O'QUV NATIJALARINI YAXSHILASHDA SAMARALI FIKR-MULOHAZA VA METAKOGNITSIYA STRATEGIYALARINING ROLI <i>Rasulov Jaxongir Sindarovich</i>	193
MAKTABGACHA VA UMUMIY O'RTA TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH <i>Nortoshov Utkir Rayimkulovich</i> .	198
BOSHLANG'ICH TABIIY FANLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA 5E MODELIDAN FOYDALANISH <i>Boychayeva Sharifa Saidkulovna</i>	203
KITOB – MA'RIFAT CHASHMASI <i>Bazarov Shavkat</i>	209
O'QUVCHILARNI BADIY ASARLAR O'QITISH ORQALI AXBOROTLAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH <i>Rasulova Zohida Sindarovna</i>	212
MILLIY HARAKATLI O'YINLAR: SALOMATLIK VA MA'NAVIYAT SARCHASHMASI <i>Sadiyev Nasibullo Saypullayevich</i>	215
RAQAMLI RASSOM: MATEMATIKA VA INFORMATIKA INTEGRATSIYASIDA FUNKSIYALARNI O'RGANISHNING INNOVATSION METODIKASI <i>Mavlayanov Muminjon Akramovich, Raxmonov Jamshidbek Turdaliyevich</i>	219
MODERN METHODOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING: A THEORETICAL AND CONCEPTUAL ANALYSIS OF INNOVATIVE APPROACHES <i>Oktayev Eldor Namik o'g'li</i>	223
DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH <i>Jonibekov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i>	227
ZAMONAVIY O'QITISH TEXNOLOGIYALARI ORQALI O'QITUVCHILARNING KASBIY-KREATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH <i>Amanyov 'lov Sindor Faxriddin o'g'li</i>	233



**SIRDARYO VILOYATI
PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI**

